

## INVESTITSİYALARNING MAZMUNI, SHAKLLARI VA MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Djurayeva Iroda Bahrom qizi

TDIU, tayanch doktoranti  
«International School of Finance  
Technology and Science» Instituti o‘qituvchisi  
<https://orcid.org/0009-0006-5614-8591>  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7802669>

### Annotatsiya

Ushbu maqolada investitsiyalar mazmuni, turlari va mamlakatlar iqtisodiyotida tutgan ahamiyatli jihatlari yoritib beriladi. Investitsion siyosat va to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya shakllari, mamlakatimizda investitsiyalarning iqtisodiy-huquqiy asoslari xususida izlanishlar olib boriladi. Investorlar va tadbirkorlik subyektlarining manfaatdor tomonlari to‘g‘risida fikr-mulohazalar asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** investitsiya, investitsion muhit, investitsion siyosat, investitsiya resurslari, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar

### Аннотация

В данной статье освещены содержание, виды и важные аспекты инвестиций в экономику страны. Исследуются инвестиционная политика и формы прямых иностранных инвестиций, экономические и правовые основы инвестиций в нашей стране. Обоснованы мнения об инвесторах и акционерах хозяйствующих субъектов.

**Ключевые слова:** инвестиции, инвестиционная среда, инвестиционная политика, инвестиционные ресурсы, прямые инвестиции.

### Abstract

This article describes the content, types and important aspects of investments in the country's economy. Investment policy and foreign direct investment forms, economic and legal foundations of investments in our country are being researched. Opinions about the interested parties of investors and business entities are justified.

**Key words:** investment, investment environment, investment policy, investment resources, direct investments

### KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotida yuz beradigan iqtisodiy munosabatlar uning makroiqtisodiy barqarorlik holatiga ta'sir qiladi. Bunday iqtisodiy munosabatlarni ro'yobga chiqaruvchilar, eng avvalo, tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi ham tez sur'atlar bilan oshib boradi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlarning asosiy mazmuni ham aholi daromadini ko'paytirish, turmush tarzini yaxshilash maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng imkoniyatlar yaratib berishdir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2021-yil 02-maydagi "Tadbirkorlik faoliyatining erkinligi va

kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-328-son, 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ -598-son va bir qator qonunlarda tadbirkorlik faoliyatining shakllari, turlari, investorlar huquqlari va ularning manfaatlari kafolatlab qo'yilgan. Shuningdek, 2024-yil mamlakatimizda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilindi. "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan maqsadda ham barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish belgilab qo'yilgan[1].

### ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid adabiyotlarni o'rganish mobaynida investitsiyalar to'g'risida izlanishlar olib borgan xorijiy olimlar, MDH mamlakatlari olimlari hamda mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, izlanishlari hamda yozgan darsliklari o'rganildi. Tahlil etilayotgan mavzumiz bevosita mamlakatdagi investitsiya muhiti bilan bog'liqligi sabab, avvalo, investitsiya muhitiga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni hamda ilmiy-izlanishlarni qiyosiy ravishda tahlil qilamiz. Xorijiy olimlardan J. Deniyels va L. Radeba kabi olimlar "investitsiya muhiti" tushunchasini "biznes muhiti" tushunchasiga nisbatan o'zaro ma'nodosh sifatida baholab, o'tgan asrning 70-80-yillardagi transmilliy korporatsiyalar (TMK) hozirda biznes muhiti talablariga moslashuv shartlarini to'liq ko'chirib olishga ulgurishganliklarini yozishadi[2].

Investitsiyalar, xorijiy sarmoyalar, investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish masalalari N. Levensev, G. Kostyunina, Yu. Leonova, A. Neshitoy, I. Tkchayenko, Ye. Xazanovich va boshqalarning ilmiy izlanishlarida tadqiqot obyekti bo'lgan. Jumladan, N. Levensev va G. Kostyunina tomonidan xorijiy mamlakatlarning investitsiya siyosati, prinsiplari, ustuvor yo'nalishlari, o'ziga xos xususiyatlari hamda kapitalning xalqaro harakati kabilar keng yoritib berilgan[3].

Mahalliy iqtisodchi-olimlardan A.Vaxabov, Sh. Xajibakiyev, N. Mo'minovlar investitsiyaga kapital qo'yilma sifatida yondashadilar hamda investitsiya muhiti to'g'risida quyidagilarni ta'kidlab o'tadilar: "Investitsiya muhiti – bu xorijiy kapital qo'yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisidir[4].

### TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy investorlar o'z mablag'larini yoki moddiy ko'rinishga ega bo'lgan resurslarini biror bir mamlakat iqtisodiyotiga investitsiya sifatida kiritishi bilan bog'liq bo'lgan qarorlarni qabul qilishi uchun o'sha mamlakat biznesni tashkil etish va uni yuritish uchun yaratgan shart-sharoitlari, investitsion muhitni sog'lomlashtirish bo'yicha olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati, xususan, xorijiy kompaniyalarning hech qanday moneliklarsiz kirib kelishi, faoliyat olib borishi uchun maxsus iqtisodiy zonalarining tashkil etilgani, soliq va boshqa moliyaviy imtiyozlarning mavjudligi hamda investitsiya vizalari mavjudligi, uni kelgusida olib chiqish imkoniyatlari, iqtisodiy -huquqiy kafolatlariga e'tibor qaratishadi.

Investitsiya soʻzi lotincha “investio” soʻzidan olingan boʻlib, “kiyinaman” degan maʼnoni beradi<sup>1</sup>. Yana boshqa adabiyotda “invest” soʻzidan olingan boʻlib, pul kiritish, pul sarflamoq, qoʻymoq<sup>2</sup> degan maʼnolarni anglatishi yozilgan. Investitsiyalar- bu tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlariga qoʻyilayotgan mulkiy va intellektual qimmatliklarning barcha turlari boʻlib, buning natijasida foyda (daromad) yaratiladi yoki ijtimoiy samaraga erishiladi. Oʻzbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati toʻgʻrisida”gi qonuniga muvofiq: **investitsiyalar** — investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga boʻlgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga boʻlgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar boʻlib, ular quyidagilarni oʻz ichiga olishi mumkin<sup>3</sup>:

mablagʻlarni, yaʼni pul mablagʻlarini (shu jumladan chet el valyutasini), maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligatsiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qogʻozlarni;


koʻchar va koʻchmas mol-mulkni (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklarni)[5].

Kapitalning joylashtirish shakllari turlicha boʻlib, qator omillar asosida farqlanadi, yaʼni kapital pul va buyum koʻrinishdagi kapitalga boʻlinganligi uchun ushbu jihatlardan kelib chiqqan holda investitsiyalarni moddiy-buyumlar va pul koʻrinishidagi investitsiya turlariga ajratish mumkin. Qonunchilikka muvofiq investitsiyalar quyidagi uchta turda farqlanadi: kapital qoʻyilmalar, moliyaviy resurslarga yoʻnaltirilgan investitsiyalar, ijtimoiy turdagi investitsiyalardir.

Kapital investitsiyalarga- asosiy fondlarni yaratish va takror koʻpaytirishga, shu jumladan, yangi qurilishga, modernizatsiya qilishga, rekonstruksiya qilishga, texnik jihatdan qayta jihozlashga, shuningdek, moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar kiradi.

Moliyaviy investitsiyalarga aksiyalar, korporativ, infratuzilmaviy va davlat obligatsiyalariga, shuningdek, qimmatli qogʻozlarning boshqa turlariga kiritiladigan investitsiyalar kiradi.

Ijtimoiy investitsiyalarga inson salohiyatini, koʻnikmalarini va ishlab chiqarish tajribasini rivojlantirishga, shuningdek, nomoddiy boyliklarning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalardir.



**1-rasm. Investitsiya turlari<sup>4</sup>**


<sup>1</sup> Советский энциклопедический словарь. – М.: «Советская Энциклопедия», 1979

<sup>2</sup> Karlibayeva R.X. Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011

<sup>3</sup> Oʻzbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonuni, 25.12.2019 yildagi OʻRQ-598-son;

<sup>4</sup> Muallif ishlanmasi

Investitsiyalar shakllari investitsiya qilinadigan obyekt turiga muvofiq tanlanadi va yoʻnaltiriladi. Investitsiya shakllaridan kelib chiqqan holda investitsiya resurslari farqlanadi. Investitsiyalarning manbai boʻlib, asosan, oʻz mablagʻlari jamgʻarmalari, xorijiy kredit liniyalari, davlat maqsadli byudjeti hamda bank krediti kabilar xizmat qiladi. Investitsiya shakllarini R.X. Karlibayeva 4 ta guruhga ajratadi:




2-rasm. Investitsiya shakllari<sup>1</sup>

Moliyaviy shakldagi investitsiyalarga pul resurslari: paylar, aksiyalar, obligatsiyalar va shu kabi boshqa qimmatli qogʻozlar kiradi.

Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish investitsiyalarning turlari hamda investitsiya bozorining aktivlik darajasi uning elementlari oʻrtasidagi nisbatiga bogʻliq boʻladi. Ularni bozor konyunkturasini oʻrganish orqali aniqlanadi.

2023 yilda Oʻzbekiston Respublikasida asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar hajmi 352,1 trln soʻmni tashkil etgan<sup>2</sup>.



3-rasm. Asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan jami xorijiy investitsiyalar va kreditlar davlatlar kesimidagi ulushi<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Karlibayeva R.X.. Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011

<sup>2</sup> Statistika qoʻmitasi rasmiy veb sayti maʼlumotlari stat.uz

<sup>3</sup> Statistika qoʻmitasi rasmiy veb sayti maʼlumotlari stat.uz

Shundan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar 53,4% ni tashkil etgan. Bu o'rinda Xitoy o'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida eng yuqori ko'rsatkichlar bilan investor davlatlar orasida 25,6% bilan yetakchilik qilmoqda. Undan keyingi o'rinlarda Rossiya 13,4% bilan hamda Saudiya Arabistoni, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari va Germaniya mos ravishda 7,9%, 6,4%, 5,8%, 4,3% ni tashkil etmoqda.

Mamlakatda investitsion siyosat ko'p taraflama tuzilmaviy, tarmoq hamda mintaqani rivojlantirishda eng ustuvor yo'nalishdan hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" gi Qonunda quyidagicha izoh berilgan: investitsiya siyosati O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida va uning alohida tarmoqlarida investitsiyalarning zarur darajasini va tuzilmasini ta'minlashga, investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiya manbalarini topishga va ulardan foydalanishning ustuvor tarmoqlarini aniqlashga yo'naltirilgan investitsiyaviy faolligini oshirishga doir o'zaro bog'liq tadbirlar majmuidir. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, mamlakatimiz iqtisodiyotiga bevosita xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishini ta'minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarini takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini o'tkazish, mablag'lari mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlarda hamda raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq yo'nalishlarda mujassam qilish respublikada o'tkazilayotgan investitsiya siyosatining asosiy tamoyillaridir.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, investitsiyalar umumiy ko'rinishda uchta turga bo'linadi: real, moddiy hamda intellektual. Investitsiyalarni kiritishning asosiy maqsadi faqat kapitalning hozirgi qiymatini saqlab qolish emas, balki qo'yilmalarning xavfsizligi, serdaromadligi va ularni ko'paytirishni (kapitallashtirishni) ham qamrab oladi. Investitsiya siyosati mamlakatga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni, investorlarning huquqlarini kafolatlashni, ular faoliyatini rag'batlantirish orqali hamda imtiyozlar taqdim etish bilan mintaqani, tarmoqni tuzilmaviy rivojlantirish dasturini ishlab chiqishdir. Oxirgi yillarda investitsiya manbalari davlat mablag'lari hisobidan asta sekinlik bilan xususiy sektor ulushida yuqori darajalarni qayd etib bormoqda.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni;
2. Дэниэлс Дж.Д., Радеба Л.Х. Международный бизнес: внешняя среда и деловые операции. 4-е.изд. — М.: Дело ЛТД, 2014. — 438с.
3. Левенцев Н.Н., Костюнина Г.М. Международное движение капитала: инвестиционная политика зарубежных стран: учебник. — М.: Экономист, 2007. — 368 с.
4. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar: o'quv qo'llanma. — T.: Moliya, 2010. — B. 153.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni 25.12.2019-yildagi O‘RQ-598-son Qonuni

6. Muqumov Z.A., Xodjayeva M.X., Xasanova X.F. Investitsiyalar auditi. O‘quv qo‘llanma. - T.: TDIU, 2019. - 170 b.